

Soliq intizomini rag‘batlantirishning evolyutsiyasi: chek lotereyalari va keshbekni qo‘llashning jahon tajribasi

Xaridorlarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish — ko‘pchilik davlatlar soya iqtisodiyotiga qarshi kurash va zamonaviy soliq ma‘muriyati tizimlariga o‘tish bosqichida murojaat qilgan, jahon miqyosida tan olingan amaliyotdir. Bunday dasturlarning asosiy maqsadi fuqarolarda kassa chekini talab qilishga bo‘lgan bevosita moddiy manfaatdorlikni shakllantirish edi. Bu millionlab odamlarni jamoatchilik soliq nazorati tizimiga jalb qilish va tadbirkorlar tomonidan naqd tushumni yashirish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklash imkonini berdi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida iste'molchilarni rag‘batlantirishning bir qancha asosiy modeli ajratib ko‘rsatiladi:

- **Chek (soliq) lotereyalari.**
- **Xarajatlar rasman tasdiqlangan taqdirda soliq chegirmalari**
- **Naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag‘batlantirish.**
- **Bir nechta vositalarni bir vaqtning o‘zida birlashtiruvchi kombinatsiyalashgan modellar.**

Xalqaro tajribani tahlil qilish ushbu mexanizmlarning soliq organlari raqamlashtirilishi jarayonida qanday o‘zgarganini tushunish imkonini beradi.

Davlatlar tajribasi: uzoq muddatli tizimlardan rag‘batlantirish bosqichining yakunlanishigacha

1. Tayvan: uzoq muddatli lotereyaning jahon namunasi

Eng mashhur va tarixan barqaror namuna Tayvan hisoblanadi, u yerda davlat chek lotereyasi 1951-yildan buyon uzluksiz amal qilib kelmoqda. Ushbu tizimda berilgan har bir kassa cheki avtomatik ravishda lotereya bileti vazifasini bajaradi, yutuqlar esa muntazam asosda o‘tkaziladi.

Joriy etishning dastlabki bosqichida ushbu vosita soliq tushumlarining keskin o‘shishini ta'minladi, chekni olish odati esa chuqur ildiz otib, milliy soliq madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Zamonaviy davrda ushbu mexanizm to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, hozirda elektron hisob-fakturalar va mobil ilovalar asosida ishlaydi.

2. Portugaliya: lotereya va soliq imtiyozlarining sinergiyasi

2014-yildan boshlab Portugaliya QQSdan bo‘yin tovlashga qarshi asosiy vosita sifatida «*Fatura da Sorte*» chek lotereyasini yo‘lga qo‘ydi. Chekda o‘zining shaxsiy soliq raqamini (NIF) ko‘rsatishni so‘ragan xaridorlar avtomatik

ravishda qimmatbaho va pul mukofotlari o'ynatiladigan haftalik yutuqlar tarqatishning ishtirokchisiga aylanadi. Dastur mavjud bo'lgan davr mobaynida fuqarolarga taxminan 19 million yevro taqsimlangan.

Muhim o'zgarish bosqichi: 2024-yil yanvaridan boshlab Portugaliyada yutuqlar tarqatish soliq xizmati va davlat qarzini boshqarish agentligi o'rtasidagi kelishuv shartlarini qayta ko'rib chiqish maqsadida vaqtincha to'xtatildi. Hokimiyat dastur 2026-yilda yangilangan formatda qayta ishga tushirilishini e'lon qildi. Yangilanish e'tiborni qayta yo'naltirish va xaridorlar chekni eng kam so'raydigan iqtisodiyot sohalariga qattiq urg'u berishni nazarda tutadi.

Portugaliya tajribasi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar shuni tasdiqladi: eng barqaror va uzoq muddatli samarani alohida lotereyalar emas, balki ularning xarajatlar tasdiqlangan taqdirda fuqarolarga soliq chegirmalari berilishi bilan uyg'unlashuvi, shu bilan bir qatorda davlat institutlariga bo'lgan umumiy ishonchning rivojlanishi beradi.

3. Malta: nuqtali rag'batlantirishning yevropa tajribasi

Malta fiskal rag'batlantirishdan nuqtali vosita sifatida foydalanishning klassik yevropa namunasidir. Bu yerda chek lotereyasi, avvalambor, iste'mol sohasida tushumni yashirishga qarshi kurash usuli sifatida joriy etilgan. Davlat fuqarolarga olingan cheklarni ro'yxatdan o'tkazishni taklif qildi, bu esa ularni muntazam pul mukofotlari yutuqlari uchun kuponga aylantirdi.

Malta tajribasi zamonaviy tendensiyaning yaqqol ko'rsatadi: raqamli texnologiyalar rivojlanishi va bozorning kassa apparatlari bilan to'yinishi jarayonida bunday dasturlarning e'tibori ma'lumotlarni avtomatik tekshirish va chakana savdoning eng xavfli hududlarini nazorat qilishga qaratiladi. Barcha xaridlarni umumiy subsidiyalash o'rniga tizim real vaqt rejimida g'ayritabiiy holatlarni aniqlash uchun mobil ilovalar va soliq organlarining axborot bazalari bilan integratsiyalashuv tomon evolyutsiylanmoqda.

4. Janubiy Koreya: dasturni muvaffaqiyatli yakunlash namunasi

Aholini fiskal rag'batlantirishning vaqtinchalik xususiyatini yaqqol namoyish etuvchi Janubiy Koreya tajribasi alohida tahliliy qiziqish uyg'otadi. Mamlakat kassa texnikasidan foydalanishning barqaror yuqori darajasiga erishgani va naqd pulsiz hisob-kitoblarga ommaviy o'tgandan so'ng, davlat chek lotereyasi butunlay to'xtatildi.

Koreya regulyatorlari vositaning asosiy vazifasi bajarilgan — odat shakllangan, deb hisobladi. Janubiy Koreyada soliq intizomini keyingi va uzluksiz oshirish endilikda faqat raqamli uchma-uch texnologiyalar hamda

zamonaviy, avtomatlashtirilgan soliq ma'muriyati mexanizmlari hisobiga ta'minlanmoqda.

Zamonaviy tendensiyalar: ikkinchi avlod aqlli texnologiyalarga o'tish

Latviya, Serbiya, Slovakiya va Polsha kabi bir qator boshqa yevropa davlatlarining tajribasi shuni tasdiqlaydiki, bugungi kunda chek lotereyalari asosan mahalliy darajada, iqtisodiyotning ayrim eng xavfli sohalarida nuqtali nazorat vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Ikkinchi avlod zamonaviy rag'batlantirish dasturlari dastlabki tarixiy o'xshashlaridan tubdan farq qiladi. Ulardagi asosiy texnologik e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

- **Cheklarni real vaqt rejimida raqamli ro'yxatga olish;**
- **Fuqarolar uchun QR-kodlar va qulay mobil ilovalardan foydalanish;**
- **Fiskal ma'lumotlar ishonchliligini avtomatik va zudlik bilan tekshirish;**
- **Tizimlarni soliq organlarining ichki axborot bazalari bilan bevosita integratsiyalash.**

Asosiy xulosa

Xalqaro tajriba shuni yaqqol isbotlaydiki, xaridorlarga chek olgani uchun bevosita pul mukofoti berish yoki ommaviy mablag' qaytarish jahon moliya institutlari (jumladan, IHTT va XVF) tomonidan soliq siyosatining universal yoki uzoq muddatli vositasi sifatida qaralmaydi.

Byudjet rag'batlantirish asosiy soliq madaniyatini shakllantirish bosqichida «boshlang'ich mexanizm» vazifasini samarali bajaradi. Fuqarolarning qonuniy xatti-harakati barqaror odatga aylanishi va soliq organlari ixtiyorida Big Data texnologiyalari, sun'iy intellekt hamda ma'lumotlarni uchma-uch avtomatik solishtirish tizimlari paydo bo'lishi bilanoq, byudjetdan ommaviy to'lovlarga bo'lgan ehtiyoj tabiiy ravishda kamayadi. Butun dunyoda fiskal tizimlarning keyingi rivojlanishi muqarrar ravishda raqamli shaffoflik va avtomatlashtirilgan xavf-yo'naltirilgan nazorat tamoyillari asosida quriladi.

Bekmurodova Xurshida, amaliyotchi tahlilchi